

O‘TKIR HOSHIMOVNING “DUNYONING ISHLARI” QISSASI MATNINING PSIXOLINGVISTIK TAHLILI

Toshtemirova Dinora

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 4-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasi psixolingvistik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda badiiy matnning kitobxon ongida qabul qilinishi, emotsional-ekspressiv birliklarning ruhiy ta’siri, ona konseptining lingvistik va psixologik xususiyatlari hamda assotsiativ tafakkur mexanizmlari o‘rganildi. Asarda qo‘llangan til vositalarining o‘quvchi idrokiga ta’siri psixolingvistika nazariyalari asosida izohlandi. Tahlillar natijasida qissaning kuchli psixologik ta’siri, avvalo, undagi emotsional birliklar, xalqona ifodalar, dialogik nutq va milliy-madaniy konseptlar bilan bog‘liqligi aniqlandi. Ona obrazi asarning konseptual markazi sifatida namoyon bo‘lib, kitobxonning hissiy xotirasi va assotsiativ tafakkurini faollashtiruvchi asosiy omil ekanligi isbotlandi.

Kalit so‘zlar: *psixolingvistika, badiiy matn, ona konsepti, assotsiatsiya, idrok, emotsionallik, nutq faoliyati, antropotsentrizm.*

ABSTRACT

This article presents a psycholinguistic analysis of O‘tkir Hoshimov’s novella “Dunyoning ishlari”. The study examines the perception of literary text by readers, the psychological impact of emotional and expressive units, the linguistic and psychological features of the mother concept, and associative thinking mechanisms. The influence of linguistic means on readers’ perception is interpreted through psycholinguistic theories. The findings reveal that the strong psychological effect of the novella is closely related to its emotional vocabulary, colloquial expressions, dialogic speech, and national-cultural concepts. The image of the mother functions as the conceptual core of the text and serves as the main factor activating emotional memory and associative thinking.

Keywords: *psycholinguistics, literary text, mother concept, association, perception, emotionality, speech activity, anthropocentrism.*

KIRISH

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikda antropotsentrik paradigma shakllanib, til hodisalarini inson omili bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish tendensiyasi kuchaydi. Til endilikda faqat grammatik yoki struktur birliklar majmui sifatida emas, balki

inson tafakkuri, ruhiyati, madaniyati va kommunikativ faoliyati bilan bog‘liq murakkab tizim sifatida talqin qilina boshlandi. Ana shunday yondashuv natijasida psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya kabi yangi yo‘nalishlar yuzaga keldi. Psixolingvistika nutqning yaratilishi, qabul qilinishi, qayta ishlanishi va inson ongida saqlanishi jarayonlarini o‘rganadigan fan sifatida bugungi kunda tilshunoslikning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Psixolingvistik tadqiqotlar matnning faqat lingvistik tuzilishini emas, balki uning inson ruhiyatiga ta‘sir qilish mexanizmlarini ham ochib berishga xizmat qiladi. Ayniqsa, badiiy matnlar psixolingvistik tadqiqot uchun muhim manba hisoblanadi. Chunki badiiy asar muallif tafakkuri mahsuli bo‘lish bilan birga, kitobxon ongida ma‘lum ruhiy reaksiyalarni yuzaga keltiradi. Shuning uchun ham badiiy matni psixolingvistik jihatdan tahlil qilish uning yashirin semantik qatlamlarini ochish imkonini beradi.

O‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi O‘tkir Hoshimov ijodida inson ruhiyati, oilaviy munosabatlar, mehr-oqibat, ona siymosi va milliy qadriyatlar alohida o‘rin egallaydi. Yozuvchining “Dunyoning ishlari” qissasi nafaqat o‘zbek kitobxonlari, balki boshqa millat vakillari tomonidan ham sevib mutolaa qilinadigan asarlar qatoriga kiradi. Asarda ona obrazi markaziy badiiy konsept sifatida namoyon bo‘ladi. Muallif ona siymosini ideal darajaga ko‘tarish orqali kitobxon qalbida chuqur hissiy ta‘sir uyg‘otadi.

Asarning eng muhim xususiyatlaridan biri shundaki, unda murakkab voqealar yoki favqulodda syujet emas, balki oddiy hayotiy hodisalar tasvirlanadi. Ammo aynan shu oddiy voqealar kitobxon ruhiyatiga kuchli ta‘sir ko‘rsatadi. Bu esa qissaning psixolingvistik imkoniyatlari yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi “Dunyoning ishlari” qissasidagi psixolingvistik birliklarni aniqlash, ona konseptining matndagi o‘rnini belgilash va kitobxon ongida yuzaga keladigan assotsiativ hamda emotsional jarayonlarni tahlil qilishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy, interpretativ va psixolingvistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, matnning konseptual tuzilishini aniqlash maqsadida semantik va kontekstual tahlil usullariga murojaat qilindi.

Psixolingvistika nazariyasiga ko‘ra, nutq faoliyati inson tafakkuri bilan chambarchas bog‘liq. Nutq jarayonida inson avval ma‘lum fikrni shakllantiradi, so‘ng uni til birliklari vositasida ifodalaydi. Badiiy matnda esa bu jarayon yanada murakkablashadi. Chunki muallif nafaqat axborot uzatadi, balki kitobxonda ma‘lum hissiy holatlarni ham yuzaga keltiradi.

“Dunyoning ishlari” qissasi psixolingvistik tahlil obyekti sifatida tanlanishining asosiy sababi undagi hissiy ta‘sir kuchining yuqoriligidir. Asarda qo‘llangan til vositalari kitobxon ongida muayyan assotsiatsiyalarni hosil qiladi. Ayniqsa, ona obraziga oid tasvirlar

o‘quvchining shaxsiy tajribasi bilan bog‘lanib ketadi. Natijada matnning ta‘sir kuchi yanada ortadi.

Tahlil jarayonida quyidagi jihatlarga alohida e‘tibor qaratildi:

- ona konseptining verbal ifodalanishi;
- emotsional-ekspressiv birliklar;
- dialogik nutqning psixologik funksiyasi;
- assotsiativ tafakkur mexanizmlari;
- kitobxon idrokini shakllantiruvchi vositalar;
- milliy-madaniy konseptlarning psixolingvistik mohiyati.

Tadqiqot nazariy asosini psixolingvistika, antropotsentrik tilshunoslik va badiiy matn lingvistikasi bo‘yicha yaratilgan ilmiy qarashlar tashkil etadi.

NATIJALAR VA TAHLIL

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, “Dunyoning ishlari” qissasi o‘zining psixolingvistik xususiyatlari bilan o‘zbek nasrida alohida o‘rin egallaydi. Asarda qo‘llangan til birliklari faqat voqealarni bayon qilish vositasi bo‘lib qolmay, kitobxon ongida ma‘lum hissiy va assotsiativ reaksiyalarni yuzaga keltiruvchi psixologik mexanizm sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Badiiy matnning psixolingvistik qimmatini uning o‘quvchi tomonidan qanday qabul qilinishida namoyon bo‘ladi. O‘tkir Hoshimov qissasida qo‘llangan sodda va xalqona uslub kitobxon bilan muallif o‘rtasida ruhiy yaqinlik hosil qiladi. Matnda murakkab badiiy konstruksiyalardan ko‘ra jonli xalq tiliga xos birliklarning ustunligi o‘quvchida samimiylilik hissini uyg‘otadi. Bu esa matnning emotsional ta‘sirini kuchaytiradi.

Qissaning konseptual markazida ona obrazi turadi. Ona konsepti matnda turli semantik vositalar orqali ifodalanadi. Muallif onani mehr-muhabbat, fidoyilik, sabr-toqat, oqibat va ruhiy poklik timsoli sifatida tasvirlaydi. Natijada ona obrazi alohida personaj chegarasidan chiqib, umummilliy va umuminsoniy qadriyat darajasiga ko‘tariladi.

Psixolingvistik nuqtai nazardan qaralganda, ona konsepti kitobxonning uzoq muddatli xotirasida saqlanadigan universal obrazlardan biridir. Inson hayotidagi dastlabki hissiy tajribalar ko‘pincha ona bilan bog‘liq bo‘lgani sababli matnda ushbu konseptning faollashuvi o‘quvchining emotsional xotirasini ishga soladi. Shu bois qissani mutolaa qilayotgan har bir kitobxon asarni o‘z hayoti bilan bog‘laydi.

Matnda ona siymosining tasvirlanishi ko‘pincha dialogik nutq orqali amalga oshiriladi. Dialoglar psixolingvistik nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga ega. Chunki ular tabiiy kommunikatsiya modelini aks ettiradi. O‘quvchi dialoglarni qabul qilish jarayonida voqealarning bevosita ishtirokchisiga aylanadi. Bu esa matnning ta‘sirchanligini oshiradi.

Asardagi dialoglarning yana bir muhim jihati ularning xalqona ruh bilan sug‘orilganligidir. Oddiy va samimiy murojaatlar, kundalik turmushga oid iboralar hamda milliy nutq

stereotiplari kitobxonda ishonch hissini shakllantiradi. Natijada matnning pragmatik samaradorligi ortadi.

Qissadagi emotsional-ekspressiv birliklar ham psixolingvistik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Muallif hissiy ta’sirni kuchaytirish maqsadida takror, undov, ritorik murojaat va xalq maqollaridan unumli foydalanadi. Bunday birliklar o‘quvchi hissiyotlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etadi. Masalan, ona haqidagi tasvirlarda takroriy semantik birliklarning qo‘llanilishi mehr va sog‘inch tuyg‘ularini kuchaytiradi. Psixologiyada ma’lumki, takrorlangan axborot inson xotirasida mustahkamroq saqlanadi. Shu sababli muallif ayrim hissiy obrazlarni takrorlash orqali kitobxon ongida chuqur iz qoldiradi.

Tahlillar davomida qissada assotsiativ tafakkur mexanizmlarining faol ishlashi kuzatildi. Assotsiatsiya inson ongidagi bir tushunchaning boshqa tushunchani chaqirishi natijasida yuzaga keladi. “Dunyoning ishlari” qissasida ona obrazi bilan bog‘liq tasvirlar o‘quvchining shaxsiy xotiralari va kechinmalarini uyg‘otadi. Natijada har bir kitobxon matnni individual tarzda qabul qiladi.

Psixolingvistika nuqtai nazaridan bunday hodisa assotsiativ faollashuv deb ataladi. Muallif tomonidan berilgan obraz kitobxonning ongida mavjud bo‘lgan boshqa obrazlar bilan bog‘lanadi. Ona siymosi, bolalik xotiralari, oilaviy munosabatlar va mehr-oqibat haqidagi tasavvurlar o‘zaro uyg‘unlashib ketadi. Qissaning muhim xususiyatlaridan biri unda milliy-madaniy konseptlarning keng ifodalanganligidir. O‘zbek xalqining ma’naviy qadriyatlari, oilaga bo‘lgan munosabati, kattalarga hurmat va kichiklarga mehr kabi tushunchalar matnning semantik asosini tashkil etadi. Ushbu konseptlar kitobxon tomonidan nafaqat lingvistik birlik sifatida, balki madaniy tajriba sifatida ham qabul qilinadi.

Matndagi emotsional ta’sirning yana bir manbai tasvirlarning hayotiyligidir. Muallif kundalik voqealarni tasvirlash orqali murakkab falsafiy xulosalarga olib keladi. Psixolingvistik jihatdan bu usul juda samarali hisoblanadi. Chunki inson miyasi abstrakt tushunchalarga nisbatan konkret voqealarni tezroq qabul qiladi va uzoqroq eslab qoladi.

Asarda ichki monolog elementlari ham uchraydi. Ichki monolog qahramon ruhiyatini ochib berishda muhim vosita hisoblanadi. Bunday nutq shakllari kitobxonga qahramonning ichki dunyosiga kirish imkonini beradi. Natijada identifikatsiya jarayoni yuz beradi, ya’ni kitobxon o‘zini qahramon o‘rniga qo‘ya boshlaydi.

Qissadagi psixologik ta’sirning kuchliligi muallifning til tanlovi bilan ham bog‘liq. O‘tkir Hoshimov murakkab ilmiy yoki kitobiy birliklardan emas, balki xalq tiliga yaqin bo‘lgan ifodalardan foydalanadi. Bunday uslub kitobxonning matnni qabul qilish jarayonini yengillashtiradi va emotsional ta’sirni kuchaytiradi. Shuningdek, asarda uchraydigan metaforik tasvirlar ham psixolingvistik jihatdan muhimdir. Metafora inson tafakkurida yangi

assotsiatsiyalar hosil qiladi. Muallif metaforalardan foydalanish orqali hissiy mazmuni yanada chuqurlashtiradi. Natijada kitobxon voqealarni nafaqat anglaydi, balki his qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, “Dunyoning ishlari” qissasining badiiy qudrati voqealarning murakkabligida emas, balki oddiy hayotiy holatlarning yuksak emotsional darajada ifodalanishidadir. Shu jihatdan asar psixolingvistik tahlil uchun qimmatli manba hisoblanadi.

MUHOKAMA

Psixolingvistika fanida badiiy matn inson ongiga ta’sir etuvchi murakkab kommunikativ tizim sifatida baholanadi. O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasi ana shunday matnlardan biri bo‘lib, unda til vositalari orqali kuchli emotsional maydon yaratilgan.

Asarni tahlil qilish jarayonida ona konseptining nafaqat lingvistik, balki psixologik markaz vazifasini bajarishi aniqlandi. Ona obrazi kitobxon tomonidan individual tajriba bilan bog‘langan holda qabul qilinadi. Shu sababli qissaning ta’siri har bir insonda turlicha bo‘lsa-da, uning hissiy kuchi barcha uchun umumiy bo‘lib qoladi. Qissaning muvaffaqiyati muallifning inson ruhiyatini chuqur his qilganligi bilan izohlanadi. O‘tkir Hoshimov oddiy voqealar orqali murakkab ruhiy kechinmalarni tasvirlay olgan. Natijada asar kitobxon qalbiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan badiiy matnga aylangan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, qissa antropotsentrik tilshunoslik nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Chunki unda inson omili, uning hissiyoti, tafakkuri va milliy mentaliteti markaziy o‘rinni egallaydi.

XULOSA

O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasi psixolingvistik jihatdan yuksak badiiy imkoniyatlarga ega asar hisoblanadi. Tadqiqot davomida qissaning til qurilishi, emotsional-ekspressiv vositalari, konseptual tuzilishi va kitobxon ongiga ta’sir etuvchi mexanizmlari tahlil qilindi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, ona konsepti asarning semantik va psixologik markazi hisoblanadi. Muallif ushbu konsept orqali mehr-muhabbat, fidoyilik, insoniylik, sabr-toqat va ruhiy poklik kabi umuminsoniy qadriyatlarni ifodalashga muvaffaq bo‘lgan. Natijada ona obrazi individual personaj darajasidan chiqib, milliy va umuminsoniy ramz sifatida shakllangan.

Asarda qo‘llangan emotsional-ekspressiv birliklar kitobxonning hissiy xotirasini faollashtiradi. Dialogik nutq, xalqona iboralar, takrorlar va metaforik tasvirlar matnning psixologik ta’sir kuchini oshiruvchi muhim vositalar sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, xalq tiliga yaqin ifodalarning qo‘llanishi o‘quvchi va matn o‘rtasida ruhiy yaqinlik hosil qiladi.

Qissada assotsiativ tafakkur mexanizmlarining faol ishlashi kuzatildi. Ona obrazi bilan bog‘liq tasvirlar kitobxonning shaxsiy hayoti, bolalik xotiralari va oilaviy qadriyatlari bilan

bog‘lanadi. Natijada har bir o‘quvchi asarni o‘z tajribasi asosida qabul qiladi va matnning emotsional ta‘siri kuchayadi.

Psixolingvistik nuqtai nazardan qaraganda, “Dunyoning ishlari” qissasining asosiy yutug‘i uning inson ruhiyatiga bevosita ta‘sir ko‘rsata olishidadir. Muallif murakkab nazariy fikrlarni emas, balki oddiy hayotiy voqealarni tasvirlash orqali kitobxon qalbiga yo‘l topa olgan.

Shuningdek, tadqiqot natijalari badiiy matnning psixolingvistik tahlili adabiy asarning yashirin semantik qatlamlarini ochishda muhim ilmiy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. O‘tkir Hoshimovning mazkur qissasi o‘zbek tilshunosligida psixolingvistik tadqiqotlar uchun muhim material bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Demak, “Dunyoning ishlari” qissasida qo‘llangan lingvistik vositalar kitobxon tafakkuri va hissiyotiga faol ta‘sir ko‘rsatib, matnning yuksak badiiy-estetik qiymatini ta‘minlaydi. Ona konsepti esa asarning psixologik va semantik yadrosi sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari.– Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 240 b.
2. Boboxonova D. Psixolingvistika fanidan ma‘ruzalar to‘plami.– Namangan,2019. –77 b.
3. Usmonova Sh., Shamsiyeva Sh. Psixolingvistika. Darslik. – Toshkent: Bookmany print, 2022. – 187 b.
4. Mo‘minov S.M. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: filol. fan. d-ri diss. avtoref. – Toshkent, 2000. – 197 b.
5. Qurbonova S.M. Badiiy matnda shaxs xususiyatlarini ifodalash: filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Farg‘ona, 2018. – 228 b.
6. Osgood Ch.E., Sebeok T.A. Psycholinguistics: A Survey of Theory and Research Problems. – Baltimore: Waverly Press, 1954. – 203 p.